

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 79 462,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 13 703,4 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmat ko'rsatish sohasi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	79 462,6	107,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7 248,1	118,8
Moliyaviy xizmatlar	24 627,2	124,3
Transport xizmatlari	8 045,6	90,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 238,5	102,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 535,8	84,1
Savdo xizmatlari	18 646,5	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 028,0	91,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 762,5	105,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 372,0	86,9
Ijara xizmatlari	1 269,7	99,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	488,2	99,8
Shaxsiy xizmatlar	889,8	88,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 771,3	103,4
Boshqa xizmatlar	4 778,0	104,1

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 31,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (23,5 %), transport xizmatlar (10,1 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ulush



Eng past ulush




Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush Shaxsiy xizmatlar - 1,1 %, ijara xizmatlar - 1,6 %, Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hissasi 1,7 % ga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (28,6 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlari (13,8 % ga) yashash va ovqatlanish xizmatlari (17,0 % ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (48,2 % ga), shaxsiy xizmatlar (29,4 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari (17,8 % ga), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (6,0 % ga) pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-yanvar oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi 23,5 % ni tashkil etdi, bu esa 18 646,5 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 48,4 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 44,7 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 24 627,2 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi 18 064,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 31,0 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 27,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 6 563,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 24,3% ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati 38,1 % ga yetgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi

- moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

90,9 %

5,3 %

3,8 %

sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan
tashqari moliyaviy
xizmatlar

sug'urta bo'yicha
xizmatlar


yordamchi
moliyaviy
faoliyat

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,9 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,3 % oralig'ida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 7 248,1 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 118,8 % ga yetdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning umumiyligi hajmdagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi


2020- yil
yanvar-dekabr

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

Yanvar-Dekabr
2019 y.



Yanvar- Dekabr
2020 y.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 64,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 11,5 %, boshqa aloqa xizmatlari – 17,2 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 8,6 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 3 762,5 mld. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiylajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 84,1 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 2 535,8 mld. so'mga teng bo'lgan.


Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmidagi ulushi atigi 3,2 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 11,7 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlamagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 79,9 % bilan ustunlik qiladi.


Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,1 % ni tashkil etdi.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyat korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar- dekabr oylarida sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 1 372,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-dekabr bilan taqqoslaganda

Xizmatlar umumiylarda hajmida ularning ulushi 2,0 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 86,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Bozor xizmatlari-ning umumiylajmida Yunusobod tumani ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 16,9 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush Yashnobod (16,9 %) Chilonzor (12,6%) Mirobod (12,2 %), Shayhontohur(11,6) Mirzo-Ulug'bek (9,9 %) Yakkasaroy (8,3%) tumani qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Yashnobod (6,7) Uchtepa (6,1 %), Sirg'ali (5,1 %), Bektemir(2,9 %), Olmazor (7,7 %), kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Yunusobod tumanining ulushi 17,7 % ni tashkil etgan.

Bektemir tumanining ulushi esa eng past ekanligi – 2,6 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining


Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Ushbu mobaynida davr nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod (116,5 %), Chilonzor (114,0 %), Olmazor (113,3), Yashnobod (111,4%), shayxontohur(110,6%), Uchtepa (107,9 %), Mirzo-Ulug'bek (106,3 %), Bektemir (103,4 %), tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'Imagan o'sish Mirobod(102,8), %), Yakkasaroy (101,6%), Sirg'ali (79,7%) tumanlarida qayd etildi.



Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Yunusobod tumani ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 191,1 mlrd. so'mga oshdi va 13 449,3 mlrd. so'mga yetdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Toshkent shahri	79 462,6	107,4	115,6
tumanlar:			
Uchtepa tumani	5 037,3	107,9	112,3
Bektemir tumani	2 311,6	103,4	115,4
Yunusobod tumani	13 449,3	116,5	113,3
Mirzo-Ulug'bek tumani	7 896,1	106,3	109,5
Mirobod tumani	9 683,0	102,8	119,7
Shayxontohur tumani	9 253,7	110,8	103,7
Olmazor tumani	6 085,7	113,3	116,7
Serg'ali tumani	4 192,8	79,7	105,6
Yakkasaroy tumani	6 572,3	101,6	109,8
Yashnobod tumani	4 979,8	111,5	128,4
Chilonzor tumani	10 004,1	114,0	132,5

** Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yanvar-dekabr yilning oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 30 278,0 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0% ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 30 278,0 ming so'm

**O'sish sur'ati % da ,
2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan,
- 104,1 %**

Hajmnning o'sishi, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, - 4 396,9 ming so'mga

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmat ko'rsatish
sohasida faoliyat
yuritadigan korxona va
tashkilotlar soni 71 234
birlikda


O'tgan yilning shu
davriga nisbatan o'sish
sur'atlari - 116,2%

Ularning soni o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan ko'paygan
9 930 birlikda

Ularning umumiyl
miqdoridagi ulushi
- 74,2%



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning
1- yanvar holatiga
ko'ra, xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan kor-
xona va tash-
kilotlarning ulushi -
74,2 %, sanoat -
16,5 %, qurilish -
8,3 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 1,0 % ga to'g'ri keldi.
sanoat

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (37,1 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 5,4 % ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2020- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 61 304 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 34,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,8, %, tashish va saqlash - 5,5 %, axborot va aloqa - 5,2 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 42.9 % ni tashkil etaan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 89,3 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 88,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 71 234 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 9 930 tani tashkil etdi va o'sishi esa 16,2 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 74,2 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 73,1 % ekvivalentida qayd etildi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 71-203-88-15